

MUSIQA DARSLARIDA MULTIMEDIALARDAN FOYDALANISH

Raimova Dilfuza Maxamatsalievna

Andijon davlat universiteti Musiqiy ta'lim kafedrasini.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12529154>

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot texnologiyalaridan foydalanish, multimedialardan foydalanish, bir necha ma'lumot taqdim etish vositalarining bir tizimga birlashishi haqida. Shuningdek matn, ovoz, grafika, multiplikatsiya, videotasvir va fazoviy modellashtirish kabi ma'lumot taqdim etish vositalarining kompyuter tizimidagi birlashishi haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlari: multimedia, grafika, ovoz, usul, darslik, o'quv predmet.

USING MULTIMEDIA IN MUSIC LESSONS

Abstract. This article is about the use of Information Technology, the use of multimedias, the integration of several data submission tools into one system. Information is also covered by the combination of information presentation tools in the computer system, such as text, sound, graphics, multiplication, videotape and spatial modeling.

Keywords: multimedia, graphics, sound, method, textbook, educational subject.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИА НА УРОКАХ МУЗЫКИ

Аннотация. Эта статья посвящена использованию информационных технологий, использованию мультимедийных средств, интеграции нескольких инструментов представления данных в одну систему. Информация также обеспечивается сочетанием средств представления информации в компьютерной системе, таких как текст, звук, графика, умножение, видеозапись и пространственное моделирование.

Ключевые слова: мультимедиа, графика, звук, методика, учебник, учебный предмет.

Ma'lumki, har bir halq yuksak ahloqiy va estetik ideallarning yaratuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi. Shunday ekan musiqa ta'limining yangi prinsiplarini dars usullarini kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqish lozim.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusning birinchisi yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, este'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qilsa, uchinchi aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilganligi bilan muhimdir.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonimizning kuch qudrati bo'lmish barkamol shaxs, komil insonni har tomonlama yetuk qilib tayyorlash uchun faqatgina musiqa fani bilan emas, balki hozirgi zamon talabiga asosan kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda tarbiyalash zarur. Bu hozirgi davrimiz talabidir. Shu kabi dolzarb muammolarni hal qilish yo'llari haqida fikr yuritiladi. Musiqa madaniyati darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish musiqani faol qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga, bolalarning musiqiy tajribasini boyitishga, bilimlarni singdirishga yordam beradi. Bu umuman maktab o'quvchilarining musiqiy madaniyatini boyitishning muhim shartidir. Shuning uchun ham musiqiy ta'limda kompyuter texnologiyalardan foydalanishda quyidagi vazifalar muhim hisoblanadi:

- musiqa darslarida ko'proq o'quvchilarni loyiha faoliyatiga qiziqtirish.
- musiqiy kabinet kutubxonasini kengaytirish.
- yangi kompyuter dasturlarini o'zlashtirish.

Kompyuter texnologiyalarini o'quvchilar muvaffaqiyatli o'rganish uchun zarur bo'lgan ko'plab tarkibiy qismlar mavjud: Bu televizion tasvir, multimedia, animatsiya, grafika va ovoz. Kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish ko'rgazmali qurollar yetishmovchiligini hal qilishga, an'anaviy o'quv predmetlarini o'zgartirishga, o'quv materiallarini tushunish va o'zlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, multimedia vositalaridan foydalanish ham darslarning zamonaviy tipda tashkillashtirishga asos bo'ladi.

Multimedia bir nechta ta'rifga ega:

Multimedia - kompyuter apparat ta'minoti (kompyuterda kompakt-disklar o'qish qurilmasi-CD-Rom, Drive, uning yordamida ovozli va videoma'lumotni eshittirishga yordam beradigan ovoz va videoplata, joystick va boshqa maxsus qurilmalarning mavjudligi);

Multimedia - bu bir necha ma'lumot taqdim etish vositalarining bir tizimga birlashishi. Odatda multimedia deganda matn, ovoz, grafika, multiplikatsiya, videotasvir va fazoviy modellashtirish kabi ma'lumot taqdim etish vositalarining kompyuter tizimidagi birlashishi tushuniladi. Bunday vositalarning birlashishi ma'lumot qabul qilishning yangi sifatli darajasini ta'minlaydi: inson passiv ravishda mahliyo bo'libgina o'tirmasdan, balki faol ishtirok etadi ham.

Multimediyalarni galereyalarga oxshatadilar. Galereyalar-bu tovushli harakatlanuvchi rasmlar to'plami,¹ degan fikrlar xam bor.

Multimedia darsliklari tufayli o'quvchilar sinfda yuqori faollikni (o'z fikrlarini bildirish, mulohaza yuritish, muhokama qilish) amalga oshiradi. Chunki ko'rgazmali tasvirlar musiqani idrok etish uchun, o'quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun asos bo'ladi. Bu esa o'quvchilarning o'ziga xos musiqiy asarlarni "eshitish" ("ko'rish") orqali, ularning musiqa va tarix, adabiyot, tasviriy san'atning turli xil turlari, me'morchilik, haykaltaroshlik, badiiy fotosuratlar va boshqalar xaqida tasavvurlarga ega bo'ladi.

Ta'lim tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'lalanmalarini yaratish va yangilash zarurligi bilim berishda chet eldagi ilg'or tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish muhimligi qayd etildi.²

O'quvchi texnologik hayotda yashaydi, u kompyuterlar, WEB-dastur/ilovalar, onlayn platformalar, suniy intillekt, neyro tarmoqlar, mobil ilovalar, mobil qurilmalar (smartfon, planshet) vositalaridan foydalanib keladi. Zamon bilan hamnafas bo'lish va o'quv jarayonida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish bir qator ta'lim muammolarini hal qilish bilan birgalikda eng muhimlaridan birini yaxshilashga imkon beradi. Bu - o'quvchilarning motivatsiyasi. Musiqa darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning asosiy maqsadi ham o'quvchilarning bilim va ijodiy faoliyatini faollashtirishdan iboratdir.

¹ Ziyavutdinova Z.U. Use of Multimedia Tools in Music Culture Lessons. BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. Volume:2 Issue:7|2023

² Ziyavutdinova Z.U. MADANIYAT VA SAN'AT JURNALI. ISSN: 2181-4562, 56-b

Musiqqa darsiga kompyuter texnologiyalarini qanday qilib yaxshiroq kiritish va uni o'quvchilar uchun qiziqarli qilish to'g'risida quyidagi mulohazalarni yuritish mumkin:

-o'quvchining darsdagi rolini o'zgartirish kerak: passiv o'quvchidan uni o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish. Bunday holda o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar sheriklik tomon o'zgaradi va talaba pedagogik ta'sir ob'ektidan o'quv faoliyati sub'ektiga aylanadi.

O'quv dasturida haftada faqat bir soat musiqqa darsi nazarda tutilgan, bu ko'p qirrali barkamol shaxsni shakllantirish uchun yetarli emas. Shu munosabat bilan dars samaradorligini oshirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqqa darslarida muvaffaqiyatli o'rganish shartlaridan biri, shubhasiz, darslarda ishlatiladigan audio va video materiallarning sifati. Zamonaviy texnik o'quv vositalaridan foydalanish (kompyuter, videomagnitafon, musiqqa markazi va boshqalar) kerakli natijaga erishishga imkon beradi. Va, albatta muvaffaqiyatli o'rganishning muhim tarkibiy qismlaridan yana biri bu o'quvchilarni rag'batlantirishdir.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan musiqqa darslarida foydalanish har qanday yoshdagi o'quvchi uchun o'qitishni yorqin, unutilmas, qiziqarli qiladi va mavzuga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Talabalar kompyuter texnologiyalarini muvaffaqiyatli o'rganishlari kerak bo'lgan ko'plab komponentlar mavjud: televizor, multimedia, animatsiya, grafika va ovoz. Kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'rgazmali qurollarning etishmasligini hal qilishga, an'anaviy o'quv fanlarini o'zgartirishga, o'quv materiallarini tushunishga va o'zlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, multimedia vositalaridan foydalanish darslarni zamonaviy tashkil etish uchun asosdir.³

Yuqoridagi fikrlarni tahlil qilish orqali zamonaviy kompyuter texnologiyalarini o'zlashtirish kerak degan xulosaga olib keldi. Maktab ma'muriyati majlislar zaliga (musiqqa sinf xonasiga) kerakli asbob-uskunalar (musiqqa markazi, interaktiv doskalar, proektor, kompyuter va noutbuk, raqamli musiqqa asboblari, smart televizor, mikrofonlar va boshqalar) bilan ta'minlash zarur bo'ladi. Bu esa kompyuter texnologiyalari orqali o'quvchilarni musiqqa darslarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlariga olib keladi.

Video ketma-ketligi: operalar, musiqiy filmlar, mumtoz va ommabop musiqqa konsertlari, bastakorlarning hayoti va faoliyati haqida badiiy va hujjatli filmlarning parchalari, xalq bayramlarining parchalari.

Sintezlangan vizual tasvirlar: bastakorlar, ijrochilar va jahon mumtoz musiqasi, musiqqa asarlarini ijro etuvchilarning portretlari.

Zamonaviy yozuvlar: tematik rasmlar, musiqiy yozuvlar, musiqiy asarlar qo'lyozmalarining parchalari, tasviriy san'at asarlarining reproduksiyalari (rasm, badiiy hunarmandchilik, haykaltaroshlik, me'morchilik, grafika va boshqalar). Shuningdek, musiqqa darslarida materialni boshqa shakllarda taqdim etish ham mumkin: kompyuter dasturlari (Power Point, PhStori, Photoshop, Cap Cut, Canva, DAW (Digital Audio Workstation) Sibelius,

³ Ziyavutdinova Z.U. Use of Multimedia Tools in Music Culture Lessons. BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. Volume:2 Issue:7|2023,375-b

MuseScore, EarMaster, Simply Piano, Adobe Audition), loyihalar, testlar, tanlangan musiqiy dastur va ilovalar va boshqalar.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi tezkor davrda yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish, ularni o'z ustida ko'proq ishlashga jalb etish, ta'lim berish jarayonlarida kompyutertexnologiyalaridan ko'proq foydalanish, yoshlarni musiqa, rasm, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, este'dodini yuzaga chiqarish, aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish juda muhimdir.

REFERENCES

1. Ishmuhammedov R.J., Yo'ldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar" T.: "Nihol nashriyoti", 2013, 2016.
2. I. Akbarov. "Musiqqa lug'ati" G'.G'ulom nashriyoti. Toshkent-1987 yil.
3. Ziyavutdinova Z.U. Use of Multimedia Tools in Music Culture Lessons. Best journal of innovation in science, research and development. Volume:2 Issue:7|2023, 375-b
4. Ziyavutdinova Z.U. Madaniyat va san'at jurnali. ISSN: 2181-4562, 56-b